

**TA'LIMNI AXBOROTLASHTIRISH SHAROITIDA O'QUVCHILARNING
INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHGA AMALIY-TEXNOLOGIK
YONDASHUV**

Umarova Ra'no Ubaydullayevna

Andijon davlat universiteti Axborot texnologiyalari va kompyuter injiniringi fakulteti

Kompyuter injiniringi kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limdi axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlanishiga amaliy-texnologik yondashuv haqida fikrlar bayon etilgan. SMART jamiyatning modeli – zamonaviy axborot va tashkiliy tizimlar yordamida intellektual, yuqori texnologiyali, inson uchun keng imkoniyat yaratadi. Shuningdek, SMART texnologiyalari yordamida zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirish, ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilar intellektual salohiyatini rivojlanish hamda zamonaviy usullardan biri – testlar, turli topshiriqlar tuzish va ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish orqali sifatli ta'limga erishishva ularni takomillashtirish omili xisoblanadi.

Kalit so'zlar: ta'lim, intellektual salohiyat, STEAM va SMART ta'lim yondashuvlari, intellektning yumshoqligi va egiluvchanligi, mustaqillik va originallik, intellektning tanqidiyligi.

Аннотация: В данной статье представлены представления о практико-технологическом подходе к развитию интеллектуального потенциала обучающихся в условиях информатизации образования. Модель SMART общества – с помощью современных информационных и организационных систем создает широкие возможности для интеллигентного, высокотехнологичного человека. А также формирование современной образовательной системы с помощью SMART-технологий, развитие интеллектуального потенциала обучающихся в условиях информатизации образования, фактор достижения и повышения качества образования посредством одного из современных методов – тестов, различных засчитываются задания и их эффективное использование в учебном процессе.

Ключевые слова. образование, интеллектуальный потенциал, STEAM и SMART образовательные подходы, мягкость и гибкость интеллекта, самостоятельность и оригинальность, критичность интеллекта.


Annotation: This article presents ideas about the practical and technological approach to the development of the intellectual potential of students in the context of informatization of education. The SMART society model - with the help of modern information and organizational systems creates ample opportunities for an intelligent, high-tech person. As well as the formation of a modern educational system with the help of SMART technologies, the development of the intellectual potential of students in the context of informatization of education, the factor of achieving and improving the quality of education through one of the modern methods - tests, various tasks are counted and their effective use in the educational process.

Keywords: education, intellectual potential, STEAM and SMART educational approaches, softness and flexibility of intellect, independence and originality, criticality of intellect.

O‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda SMART ta’lim vositalaridan foydalanish hamda elektron axborot ta’lim resurslari iSpring Quiz Maker dasturi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo‘nalishda qo‘yilgan salmoqli qadamlardan biri ta’lim sohasida dunyo bo‘yicha amalga oshirilishi boshlangan “SMART education” loyihasini keltirish mumkin. SMART education (aqli ta’lim) ochiq axborot resurslari yordamida interaktiv virtual muhitda amalga oshiriladigan moslashuvchan va individuallashtirilgan zamonaviy ta’lim texnologiyasidir. Uning eng asosiy xususiyati uning butun dunyo miqyosida amalga oshirilishi va hammaga birdek axborot olish va keng ta’lim olish imkoniyatlarining yaratilishidir. SMART ta’lim muhiti, o‘z navbatida, uning qatnashchilaridan butun ta’lim jarayonini, foydalanilayotgan metod va texnologiyalarni yangilash va bir tizimga keltirishni taqozo etadi.

SMART jamiyatning modeli – zamonaviy axborot va tashkiliy tizimlar yordamida intellektual, yuqori texnologiyali, inson uchun qulay muhitni yaratishni nazarda tutadi. Borgan sari inson yangi bilimlarni egallab boradi va u bu bilimlarni axborot texnologiyalarisiz qo‘llay olmay qoladi. Ta’limning asosiy maqsadlaridan biri SMART texnologiyalar asosida zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirish orqali sifatli ta’limga erishishdir.

O‘quv-tarbiya jarayonini SMART ta’lim asosida tashkil etishda SMART ta’limning asosiy tamoyillariga rioya etish talab etiladi (1-rasmga qarang.):

- 
- 1 • Ta’lim dasturlaridagi o‘quv masalalarini echishda dolzarb axborotlardan foydalanish: o‘quvchilarni amaliy muammolarni hal etishga tayyorlash uchun amaldagi o‘quv materiallarini real vaqtida keladigan ma’lumot bilan to‘ldirish
 - 2 • O‘quching mustaqil bilim olishi, tadqiqot va loyiha faoliyatini tashkil etish. Ushbu tamoyil o‘quvchilarning muammolarni hal etishda ijodiy izlanishlar olib borish, mustaqil axborot va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda ustuvor ahamiyat qaratish
 - 3 • O‘quv jarayonini tarqalgan keng o‘quv muhitida amalga oshirish. Ta’lim muhitini o‘quv muassasasi hududi yoki masofaviy ta’lim tizimi chegaralari bilan cheklash kerak emas. Ta’lim jarayoni doimiy tashkil etish
 - 4 • Moslashuvchan ta’lim yo‘nalishlari va ta’limni individuallashtirish- shaxsga qaratish. Ta’lim faoliyatining xilma-xilligi - o‘quvchilarga ta’lim dasturlari va kurslarini o‘qitish, o‘quv jarayonida asbob-uskunalardan foydalanish, ularning sog‘lig‘ini saqlash imkoniyatlari, moddiy va ijtimoiy sharoitlarga mos ravishda keng imkoniyatlarni hisobga olish

1-rasm. SMART-ta’limning asosiy tamoyillari

Shuningdek, SMART texnologiyasi dars maqsadini to'g'ri belgilashda muhim ahamiyat kash etadi. Dars metodikasi va samaradorligi qo'yilgan maqsadga bog'liq bo'ladi. Dars maqsadi barcha o'quvchilarning umumiy va mantiqiy nutq xususiyatlari rivojlanishi asosida belgilanadi.

SMART ta'limning keng tarqalishi, birinchi navbatda internet texnologiyalarini takomillashtirish, ikkinchidan, Wi-Fi, 3G, 4G kabi simsiz texnologiyalarning rivojlanishi va uchinchidan internetda onlayn ta'lim resurslarining keng tarqalganligi bilan bog'liq.

O'quvchilarda intellektual salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tadqiq etildi. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilar intellektual salohiyatini rivojlantirishning zamonaviy usullaridan biri – testlar, turli topshiriqlar tuzish va ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish hisoblanadi. Mazkur ilovaning didaktik imkoniyatlari bo'yicha tajriba-tadqiqot ob'ektlari umumta'lim maktab o'qituvchilari uchun uslubiy material hamda mazkur ilovadan foydalanish bo'yicha metodik yordam ko'rsatildi.

Elektron axborot ta'lim resurslari ichiga kiruvchi elektron nazorat turlarini yaratish uchun iSpring QuizMaker dasturini keltirish mumkin. iSpring QuizMaker dasturi audio, video fayllar, tasvir va formulalar yordamida interaktiv testlar va anketalar yaratish imkonini beradi.

iSpring QuizMaker quyidagi asosiy imkoniyatlari mayjud: tarmoqlangan testlar yaratish imkoniyati (adaptatsiyalashtirilgan testlarni yaratish) imkoniyati; ikki, uch, to'rt yoki besh javobli yopiq test topshiriqlari, ulardan biri to'g'ri, ikkitasi haqiqatga yaqinroq turidagi topshiriqlari; bir necha to'g'ri javobli yopiq test topshiriqlari; ochiq test topshiriqlari; o'xshashlikni aniqlashga yo'naltirilgan topshiriqlar; to'g'ri ketma-ketlikni aniqlashga mo'ljallangan topshiriqlarni yaratish imkoniyati.

Hozirgi kunda test sinovlarining bir qancha turlari mavjud bo'lib, ular sinovlarni tez, sifatli va xaqqoniy o'tkazilishida katta xizmat qiladi. Bu imkoniyatlarning barchasi iSpring Suite dasturida jamlangan iSpring nafaqat flash-taqdimotlarni yaratishga, balki ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan roliklar tayyorlashda, xususan, ularga turli shakldagi so'rovlar, elektron testlarni ham kiritgan holda o'zaro interaktiv bog'lanish imkoniyatini ham beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydag'i «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi farmoni. www.lex.uz
2. A.Parpiev, A.Maraximov, R.Hamdamov, U.Begimkulov, M.Bekmuradov, N.Tayloqov. Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari O'zME davlat ilmiy nashrieti. -T.: 2008, 196 b.

3. Musurmanov R. Ta'lim muassasasini boshkarishda axborot kommunikatsiyalardan foydalanish zarurati. Konstitutsiya Respublikni Uzbekistan-obrazovanie i vospitanie molodejji.:Materialy vtoroy traditsionnoy nauchno-prakticheskoy konferensii.10-11dekabrya 2013 goda-Tashkent -2013.-S.103-106.
4. Yuldashev U.Yu, Zakirova F.M. “ Informatika o‘qitish metodikasi”.T.2007
5. M.E.Musaeva, G.T.Boymurodova. “Ta’lim jarayonida qo’llaniladigan interfaol metodlar”.T.2017.
6. Sobirov, Dilshod. Informatika fani darslarida kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan ta’lim / Dilshod Sobirov, K. A. Iskandarov. — Tekst : neposredstvennyy // Molodoy uchenyyu. — 2016. — № 29.3 (133.3). — S. 31-32.
7. D.Xidoyatova. Interfaol metodlardan foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish. T.: 2012.